



THE ROLE OF WOMEN'S LABOR ACTIVITY IN THE HEALTHCARE SYSTEM OF UZBEK SOCIETY

Kamolakhon R. Abdurakhmonova

Lecturer

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: abduraxmonova_k@nuu.uz

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: women's labor, ethnography, anthropology, healthcare system, stereotype, women healers, gender analysis.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the ethnographic characteristics of women's labor in Uzbek society, and manifestation within the healthcare system. The study highlights women's participation mainly in traditional social roles, such as household duties, child-rearing, and local handicraft activities. In addition, the article examines the process by which women's labor gradually entered collective and professional spheres—particularly the healthcare system—as a result by socio-economic development and the increasing complexity of production relations. The findings demonstrate that the historical and cultural roots of women's labor play an important role in their modern professional activities and they substantiate the need to ensure gender equality within the healthcare system.

O'ZBEK JAMIYATIDA AYOLLAR MEHNAT FAOLIYATINING TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'RNI

Kamolaxon R. Abduraxmonova

O'qituvchi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: abduraxmonova_k@nuu.uz

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: ayollar mehnati, etnografiya, antropologiya, sogʻliqni saqlash tizimi, stereotip, tabib ayollar, gender tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oʻzbek jamiyatida ayollar mehnatining etnografik xususiyatlari hamda uning sogʻliqni saqlash tizimidagi ifodasi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollarning asosan anʼanaviy ijtimoiy rollar, yaʼni uy-roʻzgʻor ishlari, farzand tarbiyasi va mahalliy hunarmandchilik faoliyatlaridagi ishtiroki yoritiladi. Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ishlab chiqarish munosabatlarining murakkablashuvi natijasida ayollar mehnatining jamoaviy va professional sohalarga, xususan sogʻliqni saqlash tizimiga kirib borish jarayoni tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari ayollar mehnatining tarixiy-madaniy ildizlari ularning zamonaviy professional faoliyatida muhim rol oʻynashini koʻrsatadi hamda sogʻliqni saqlash tizimida gender tengligi taʼminlash zaruratini asoslab beradi.

РОЛЬ ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖЕНЩИН В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ОБЩЕСТВА

Камолахон Р. Адрурахманова

Преподаватель

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

E-mail: abduraxmonova.k@nuu.uz

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: женский труд, этнография, антропология, система здравоохранения, стереотип, женщины-целительницы, гендерный анализ.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируются этнографические особенности труда женщин в узбекском обществе, а также его отражение в системе здравоохранения. В исследовании освещается участие женщин преимущественно в традиционных социальных ролях, таких как ведение домашнего хозяйства, воспитание детей и занятия местными ремёслами. Кроме того, анализируется процесс вовлечения женского труда в коллективные и профессиональные сферы, в частности в систему здравоохранения, обусловленный социально-экономическим развитием общества и усложнением производственных отношений. Результаты исследования показывают, что историко-

культурные корни женского труда играют важную роль в их современной профессиональной деятельности, а также обосновывают необходимость обеспечения гендерного равенства в системе здравоохранения.

Kirish. XIX asr oxirlarigacha O‘zbekiston hududida yashagan ayollar asosan an’anaviy ijtimoiy vazifalarni bajarib kelgan. Ular asosan an’anaviy uy-ro‘zg‘or ishlari, farzand tarbiyasi va mahalliy hunarmandchilik, tabiblik faoliyatlari bilan shug‘ullangan (Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences n.d.). Ammo, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish munosabatlarining murakkablashuvi ayollarni ham jamoaviy hayotga faolroq jalb etishni taqozo etdi. Vaqt o‘tishi bilan mehnat faoliyati institutsionlashib, sog‘liqni saqlash tizimining bir qismiga aylana boshladi. Ayollarning erkaklar bilan teng sharoitda mehnat jarayonlarida ishtirok etishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirdi, balki ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish va shaxsiy o‘zini anglash darajasini yuksaltirishga sabab bo‘ldi. Bu transformatsiya nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq.

Asosiy qism. Ayollarning XIX asrgacha emperik bilimlar asosida xalq tabobatida tabiblik faoliyati, XX asr boshidan Sovet davrigacha ijtimoiy hayotga jalb qilinishi, Sovet davri tibbiyot tizimida hamshiralik va shifokorlik faoliyati, Mustaqillikdan so‘ng professional faoliyat bilan shug‘ullanganlik tarixiy bosqichlarga bo‘lish mumkin.

Tarixiy manbalar ayollarning tibbiyot sohasida, xususan, davolash va jarrohlik amaliyotlarida faol ishtirok etganini tasdiqlaydi. Biroq, ularning ushbu sohadagi ishtiroki nisbatan cheklangan bo‘lib, bu holat ayollarning umumiy bandlik darajasi, diniy e‘tiqodlar, hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Turli manbalarda qadimgi davrda faoliyat yuritgan ayol tabiblar to‘g‘risida ko‘plab tarixiy ma’lumotlar uchraydi. Misol uchun, “Avesto”da tibbiyotning kelib chiqishi haqida yana bir rivoyat bor. Unda yozilishicha, odamlarga tabiblik san’atini Yima ismli zot o‘rgatgan. Bu zotni Nuh payg‘ambarga nisbat qiladilar. Avestoda odam anatomiyasi hamda fiziologiyasi haqida ham ba’zi ma’lumotlar mavjud. Unda odam gavdasi quyidagi 8 qismdan: suyaklar, muskullar, yog‘lar, miya, tomirlar, qon, jigar va jigar o‘ti hamda ikki xil tomir mavjudligi ham ko‘rsatilgan (UZA, 2026).

Qadimgi Misr davolash tarixiga oid manbalarda ham ma’lumotlar keltiriladi. Qadimgi Misr diniy tasavvurlarida Osiris osmon va havo hodisalari, o‘limdan keyingi hayot, tabiatning halokat va qayta tiklanish jarayonlari ustidan hukmronlik qiluvchi iloh sifatida berilgan. U davolovchi

kuchlar va sehrli shifobaxsh amaliyotlar bilan bog‘liq bo‘lgan, davolash san’atining boshlang‘ich yaratuvchisi sifatida qaralgan. Galen (II asr) kitoblarida ham Osiris tabiblikni onasi ma’buda Isidan o‘rgangani, Isis deb nomlangan dorilar qadimgi Rimda ham aholi o‘rtasida mashhur ekanligi keltiriladi. Tauert haqida ham ma’lumotlar yetib kelgan bo‘lib, u unumdorlik, oila, ayollar, tug‘ruqdagi ayollarning homiysi hisoblanadi. Xalq orasida homiladorlik davrida, tug‘ruq jarayonida, yangi tug‘ilgan go‘dakning yoniga maxsus homilador ayol obrazida yasalgan gippopotam shaklidagi haykalchani qo‘yish an’anasi mavjud bo‘lgan. Ushbu haykalcha ona va chaqaloqni turli salbiy ta’sirlardan himoyalovchi ramziy vosita sifatida keltirilgan. Bu ayol va farzandni asrashiga ishonch belgisi bo‘lib, ibtidoiy diniy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Peseshet ismli ayol tabib xususida ham ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, “Ayol tabiblar boshlig‘i” (imy-r swnt unvoni) unvonini (Saber, 2010) olganligi uning o‘g‘li Axet-Xetepning qabrtoshida onasi Misr zodagonlarining eng yuqori tabaqasiga mansub shaxs, “podshohning yaqin tanishi” degan unvon berilganligi yozilgan (Harer & el-Dawakhly, 1989).

Qadimgi Mesopotamiya manbalarida (Mark, 2026) ham ayol tabiblar ikkiga bo‘lingani, ulardan asu-dori, o‘simlik bilan davolovchi tabib, asipu-duo, sehr bilan davolovchi ekanligi haqida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, ayollar doya vazifasini ham bajargan.

García (2017) Qadimgi Yunonistonda yashagan afsonaviy ayol shifokor Agnodika (Agnodice) Yunonistondagi birinchi ayol shifokor bo‘lganligi rim yozuvchisi Gay Yuliy Giginning “Fabulae” nomli qisqa rivoyatlar to‘plamining 274-rivoyatida keltiriladi. Afinada Agnodika yashagan davrda ayollarga tibbiyot o‘rganish va shifokorlik qilish qonun bilan taqiqlangan bo‘lib, qoidani buzganlar o‘lim jazosi bilan jazolangan. Ayollar odob-axloq qoidalariga zid deb erkak shifokorlarga murojaat qilishdan tortingan. Oqibatda tug‘ruq vaqtida ko‘plab ayollar halok bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Agnodika sochlarini qirqib, erkak kiyimini kiyib mashhur olim Gerofil qo‘lida tibbiyot ilmini o‘rganadi. Ta’limdan so‘ng u yashirincha ayollarni davolaydi. U ayollarning tibbiy ta’lim olishi va kasb egallashi huquqi uchun kurashgan. Mahalliy xotin-qizlar va bolalarga mo‘ljallangan shifoxona 1883-yilda Toshkentda ochilgan (Badalov. 2021). Shuningdek, fransuz tadqiqotchisi Melaniya Lepinska (1900) o‘zining “Ayol tibbiyot hodimlari tarixi” mavzusidagi dissertatsiya ishida “1899-yilda Markaziy Osiyoda 11 nafar ayol shifokorlar faoliyat olib borgan bo‘lib, ulardan Samarqandda 3 nafar, Namanganda 2 nafar, Andijon, Buxoro, Qo‘qon, Marv, Toshkentda bir nafarni tashkil qilgan”, degan fikrlar bilan birgalikda birinchi musulmon ayol shifokori Roziya Qutluyarova Peterburgda 1900-yilda tahsil olib, Toshkentda o‘z faoliyatini olib borganligi ham tahlil qilingan (Abduraxmonova, K.R. (2024).

Ayol tabiblarning soni erkak tabiblar soniga nisbatan kam bo'lganligi, har qanday sharoitda ham tabiblik faoliyati bilan muntazam mashg'ul bo'lmaganligi bo'lib, o'zbek xalqi ko'p hollarda erkak tabiblarga murojaat qilgan. Ayollarga tashxis qo'yishdagi o'ziga xos qarash boshqa xalqlarda ham mavjud bo'lgan, misol uchun, Tibet xalqi ayolga tashxis qo'yishda faqat bemor badanining ochiq joyini, o'zini tutishini, tashqi holatini kuzatishga ruxsat berilgan (Жыраев, 2008, s. 41). Shummer huquqiy matnlariga ko'ra, ayollar tug'ruq jarayoni bilan shug'ullangan (doya), tug'ruq paytida vafot etgan ayolning tirik bolani qutqarish uchun faqat qorinni kesishga ruxsat berilgan. Bugungi kunda ayol reproduktiv salomatligida yuzaga kelayotgan salbiy alomatlar sababli tabiiy tug'ruq o'rniga chaqaloqni ona qornidan jarrohlik yo'li bilan olish keng qo'llanilmoqda. An'anaviy tibbiy faoliyatda yoshi ulug' ayollar homiladorlik va tug'ruq jarayonlarida yordam ko'rsatib, doyalik vazifasini bajarganlar. Shu bilan birga, xalq tabobatida og'riqli joylarni oyoq yordamida davolash amaliyoti bilan shug'ullangan "Tepguvchi" ayollar (asosan egizak farzandlari bor bo'lgan ayollar) bo'lgan.

O'zbekistonda XX asrgacha ayollarning roli an'anaviy uy va oiladagi vazifalar bilan cheklangan. Qishloq xo'jaligi, uy-ro'zg'or ishlar, bolalar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lgan. XX asr boshlarida ijtimoiy va madaniy transformatsiyalar boshlanib, bu jarayon ayollarning jamiyatdagi rolini ham o'zgartirdi. 1920-1930 yillar ayollar mehnat bozorida faol ishtiroki boshlanib, ta'lim hamda ish bilan ta'minlandish imkoniyatini qo'lga kiritdi. 1960-1980 yillarda ayollar turli sanoat tarmoqlarida faoliyat olib borishi kuchayib, ta'lim olish imkoniyati oshdi. Bu davrda an'anaviy stereotiplarga qarshi kurashish kuchaydi. Mustaqillikdan so'ng ayollar iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda faoliyati kuchaydi. Ayollar ilm-fan, sog'liqni saqlash, xalqaro biznes kabi sohalarda faoliyatlarini yanada kuchaytirish imkoniyatiga erishdi. Badalov ilmiy tadqiqotlarida Farg'ona viloyatida shifoxonalarning ochilishi (ko'z, yuqumli kasalliklarga mo'ljallangan), shifokorlar faoliyati va tizimni boshqaruviga doir tahlillarni amalga oshirgan (Жыраев, 2008, s. 41).

Farg'ona viloyatida olib borilgan tadqiqotimizga ko'ra, Farg'ona viloyati Toshloq tumani aholisi xalq orasida juda mashhur bo'lgan ayol tabibga murojaat qilishlari kuzatildi (Shahnoza tabib, 2023). Ayol tabib "Bemorning ichki a'zolari bilan bog'liq kasalliklarga tashxis qo'yishda, bolalar va ayollarning kasalliklarini aniqlashda bemor bilan suhbatlashishi zarur. Ayollar va bolalarda qo'rquv, hayajon sababli kasallik alomatlarini kuzatishda qiyinchilik yuzaga keladi. Shu sababdan tabib bemorning ruhiy holatini tushuna olishi kasallikni aniqlashda, to'g'ri tashxis qo'yishda yordam beradi", deya javob berdi. Demak, bemorga tashxis qo'yishda tabib mana shu jihatlarga katta e'tibor qaratishi lozim. Hozirda aholi o'rtasida tabib erkak bo'ladimi yoki ayol teng murojaat qiladi. Ko'p holatlarda to'g'ri tashxis qo'ygan va davolagan tabiblar haqida OAV,

ijtimoiy tarmoqlar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilardan eshitib murojaat qilish ko'rsatkichi yuqori. Tibbiy madaniyatni shakllantirish va aholining sog'liqni saqlashga oid bilimlarini oshirish jarayonida tibbiyot sohasi mutaxassislarining faoliyati alohida e'tiborga molik. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, yuqumli hamda surunkali kasalliklarning oldini olish, profilaktik tadbirlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan tizimli targ'ibot ishlari aynan ayollar olib borgan. Kasalliklarning klinik belgilari to'g'risida aholini xabardor qilishga qaratilgan faoliyat ham yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, xalq tabobatining tarixiy tajribalari zamonaviy tibbiy yondashuvlar bilan integratsiyalashib, sog'liqni saqlash sohasida kompleks ko'rinishdagi yondashuv shakllangan. Bu jarayon, aholining sog'liqni saqlashga oid savodxonligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Olib borilgan tashviqot ishlari esa fuqarolarning zamonaviy tibbiy xizmatlardan foydalanishga bo'lgan ijtimoiy talabini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etgan.

Dunyoda sog'liqni saqlash va parvarish ishchi kuchining 67,2%ini ayollar tashkiletadi, bu esa sog'liqni saqlash sohasidagi ishchilar ko'pchiligini ayollar tashkil etishini ko'rsatadi (World Health Organization, 2024). Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil O'zbekistonda jami vrachlar sonining 47% ayollar, 53% erkaklar ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa 2025-yil holatiga ko'ra vrachlar tarkibida ayollar 46,6%ni, erkaklar esa 53,4%ni tashkil qiladi ((National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, 2025). Bu raqamlar sog'liqni saqlash tizimidagi gender muvozanati mavjudligini ko'rsatadi, chunki ayollar ko'pincha tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida katta rol o'ynaydilar (World Health Organization, n.d.). O'zbekistonda bu masalaga ham e'tibor berilgan, tibbiyot tizimida gender tenglikni rag'batlantirish va shifokorlar o'rtasida diversifikatsiya jarayonlari davom ettirilmoqda. Bu orqali bemorlarni yaxshiroq parvarish, moslashuvchan xizmatlar va kuchli jamoa ishlashini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Etnografik kuzatuvlarga ko'ra, ayollar oilada asosan, bolalarni parvarish qilish, kasalliklarni davolash, keksalarga g'amxo'rlik qilish kabi vazifalarni bajarishlari sog'liqni saqlash faoliyati ularning an'anaviy roliga "mos" hisoblanadi. An'anaviy oilaviy tizimda ayollar oilaviy majburiyatlar bilan bog'langanligi sababli ish faoliyatini tanlashda moslashuvchan kasblarni tanlashga harakat qiladi. Sog'liqni saqlash sohasidagi kasblar masalan, hamshiralik vaqt jihatdan moslashuvchan hamda o'zbek jamiyatida "ayollarga mos" deb qaraladi. Jamiyatda "ayollar parvarish uchun yaratilgan", "erkaklar boshqaruv va yuqori daromadli ishlar uchun" degan stereotiplar mavjud. Shu sababdan ham, ayollar tibbiyot, ta'lim sohalarni tanlaydi. Bu esa ijtimoiy maqomga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan 2024-yilda nashr qilingan “O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar: fakt va raqamlar” statistik to‘plamda quyidagicha statistik ma’lumotlar keltiriladi.

1-jadval.

Tibbiyot muassasalari xodimlarning jinsi bo‘yicha taqsimlanishi, yil oxiriga %*						
Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Jami shifokorlar	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
erkaklar	50.1	51.8	52.4	53.7	52.3	53.0
ayollar	49.9	48.2	47.6	46.3	47.7	47.0
O‘rta tibbiy xodimlari	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
erkaklar	9.5	9.1	11.3	12.5	10.3	8.9
ayollar	90.5	90.9	88.7	87.5	89.7	91.1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, (2024-89 bet).

Birinchi jadvalda ko‘rsatilganidek, O‘zbekistonda 2018-2023-yil tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlarning jinsi bo‘yicha tarkibida ma’lum darajada o‘zgarish kuzatilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2024, 89 bet). Jumladan, 2023-yilda erkak shifokorlarning ulushi 53,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018-yilda 50,1 foizni tashkil etgan. Aksincha, ayol shifokorlar ulushi 2018-yildagi 49,9 foizdan 2023-yilda 47,0 foizgacha kamaygan. Bu holat erkak shifokorlar sonining nisbiy o‘shishini va ayol shifokorlar ulushining biroz qisqarishini anglatadi. Yuqori malaka va uzoq ta’lim olish talabi, murakkab va mas’uliyatli mutaxassisliklar, masalan jarrohlik erkaklar soni yuqoriligini ko‘rsatadi. O‘rta tibbiy xodimlar tarkibida esa, aksincha, ayollar sonining ustunligi saqlangan bo‘lib, erkaklar ulushi 2022-yildagi 10,3 foizdan 2023-yilda 8,9 foizgacha kamaygan, ayollar ulushi esa 89,7 foizdan 91,1 foizgacha oshgan. Bu ko‘rsatkichlar sog‘liqni saqlash tizimidagi gender muvozanatining ixtisoslashuv darajasiga bog‘liq holda turlicha shakllanayotganini ko‘rsatadi. Ayollar ustunligi tarixiy an’analar (parvarish ayolar vazifasi sifatida qaralishi), madaniy stereotiplar, nisbatan past ish haqi bilan bog‘liq. Xususan, yuqori malakali shifokorlik faoliyatida erkaklar ulushi biroz oshgan bo‘lsa, o‘rta tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar orasida ayollar sonining ko‘pligi saqlanmoqda. Bu esa kasbiy tanlovdagi gender tendensiyalari va ijtimoiy me’yorlarning tibbiyot sohasidagi aksidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev (2022) o‘z nutqida xalq salomatligini eng sutuvor va qadrli ekanligini ta’kidladi. Bu fikr sog‘liqni saqlash sohasidagi

siyosat va tashabbuslarning markazida inson salomatligi ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, aholining sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

Ayollarning sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat kabi sohalarda to'planishi, yillar davomida ularning ish haqining respublikadagi o'rtacha ko'rsatkichdan ham kamayib borishiga olib keldi. Masalan, 1998-yilda sog'liqni saqlash sohasidagi ish haqi (30% ayollar ishlaydi) mamlakatdagi o'rtacha ish haqining atigi 61%ni tashkil etardi. 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasi vakillari o'rtacha maoshi 3 million 300 ming so'mni tashkil etib, bu mamlakatdagi o'rtacha oylik ish haqidan (5 million 151 ming so'm) 36 %ga kam deganidir (Kun.uz, 2024). Boshqa sohalar kabi tibbiyotda ham ish haqi 2020-2024 yillar davr oralig'ida 84%ga oshdi, lekin bu boshqa soha vakillari ish haqqiga nisbatan kam. Bu ko'rsatkichlar 2024-yilda sog'liqni saqlash sohasiga 36 trillion so'm yo'naltirilib, o'tgan yilga nisbatan 25%ga oshgan (Kun.uz, 2024).

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, sog'liqni saqlash tizimida ayollarning keng ishtirok etishi ularning tabiiy xususiyatlari bilan emas, balki jamiyatda uzoq vaqt davomida shakllangan ijtimoiy rollar va qarashlar bilan izohlanadi. G'amxo'rlik, parvarish va xizmat ko'rsatish faoliyatlarning ayollarga xos deb qabul qilinishi ularning aynan shu sohaga ko'proq faol bo'lishiga olib kelgan. Biroq bu holat ayollarning yuqori mavqega ega ekanini anglatmaydi. Amalda ular ko'proq quyi va o'rta lavozimlarda ishlaydi, rahbarlik va yuqori darajadagi vazifalarda esa erkaklar ustunligi saqlanib qolmoqda. Bu esa jamiyatda an'anaviy stereotiplarning mavjudligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmonova, K. R. (2024). Tibbiyot antropologiyasi o'rganilish tarixshunosligi. *Tarixiy Tadqiqotlar*, 2(2), 20–33.
2. Badalov, A. (2023). Farg'ona oblastida sog'liqni saqlash tizimi va undagi o'zgarishlar: Tarixiy tahlil (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) (PhD dissertatsiyasi, Andijon).
3. García, M. Á. (2017). La medicina en Mesopotamia antigua. *Asclepio: Revista de Historia de la Medicina y de la Ciencia*, 69(2), e189. <https://dialnet.unirioja.es/servlet/articulo?codigo=6304275>.
4. Harer, W. B., Jr., & el-Dawakhly, Z. (1989). Peseshet—the first female physician? *Obstetrics & Gynecology*, 74(6), 960–961.

5. Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences. (n.d.). The image of the Uzbek businesswoman in documentary films of the 20th–21st centuries. Retrieved April 5, 2026, from <https://scientaljournals.com/index.php/SJEHSS/article/download/15/10/29>.
6. Kun.uz. (2024, July 26). 3,3 mln so‘mdan 14,4 mln so‘mgacha – o‘zbekistonliklarning o‘rtacha oylik ish haqi e‘lon qilindi. <https://kun.uz/news/2024/07/26/33 mln somdan 144 mln somgacha ozbekistonliklarning ortacha oylik ish haqi elon qilindi>.
7. Kun.uz. (2024, November 27). O‘zbekistonda tibbiyot xodimlari qancha oylik oladi? <https://kun.uz/44696514>.
8. Mark, J. J. (2026, January 26). Medicine in ancient Mesopotamia: A gift of the gods to their people. World History Encyclopedia. <https://www.worldhistory.org/article/687/medicine-in-ancient-mesopotamia/>.
9. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2025, November 19). The number of male doctors in Uzbekistan exceeds the number of female doctors. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/65243-zbekistonda-erkak-shifokorlar-soni-ajollardan-k-pro-4?utm_source.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). O‘zbekistonda xotin qizlar va erkaklar: fakt va raqamlar (89 bet). Toshkent, O‘zbekiston.
11. Saber, A. (2010). Ancient Egyptian surgical heritage. *Journal of Investigative Surgery*, 23(6), 327–334.
12. Shahnoza Tabib. (2023). Dala yozuvi. Farg‘ona shahri, Toshloq tumani.
13. Shavkat Mirziyoyev: Xalqimiz salomatligi hamma narsadan ustun va qadrlı. (2022, March 18). Xalq so'zi. <https://www.xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-khalqimiz-salomatligi-hamma-narsadan-ustun-va-qadrlı>.
14. UZA. (2026). O‘zbekistonda tibbiyot rivoji va zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi qanday shakllangan? <https://uza.uz/posts/336447>.
15. World Health Organization. (2024). Health workforce: Achieving gender equality and empowering women in the health and care workforce. https://www.who.int/teams/health-workforce/hwfequity?utm_source.
16. World Health Organization. (n.d.). WHO data. <https://www.who.int/data>.
17. Жураев, А. (2008). Халқ таобати (41-б.). Тошкент: Шарқ.